

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.A.Ganiyeva</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi .....	6
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida .....	10
<b>S.N.Fazildinova</b>	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works .....	14
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini .....	17
<b>D.S.Usmonova</b>	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language .....	20
<b>D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova</b>	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges .....	24
<b>N.R.Maxmudova</b>	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida .....	28
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar .....	31
<b>I.M.Jo'rayev</b>	
Qadimiy qadriyatlar .....	37
<b>D.R.Ubaydullayeva</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi .....	41
<b>N.Q.Adamboeva</b>	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari .....	49
<b>Z.M.Dadahonova</b>	
Components of knowledge control .....	53
<b>L.Teshebayeva</b>	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar .....	56
<b>Ш.М.Артикова</b>	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма .....	60
<b>M.M.Nurmatova</b>	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida .....	66
<b>S.I.Quziyev</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari .....	70
<b>T.Z.Ismonova</b>	
Problems and solutions of grammar translation method .....	76
<b>N.A.Komilova</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari .....	80
<b>D.X.Madazizova</b>	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence .....	83
<b>S.A.Yusupova</b>	
Morphemic units expressing honour in different system languages .....	86
<b>N.Sidikova</b>	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri .....	91
<b>Sh.X.Nuritdinova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi .....	94
<b>N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva</b>	
Semantic analysis of english phrasal verbs .....	98
<b>B.A.Mukhtorova</b>	
The "Concept" in linguistics .....	102
<b>R.A.Ortiqov</b>	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili .....	106
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi .....	110

## NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA KELISHIK KATEGORIYASI TIPOLOGIYASI

## TYPOLOGY OF CATEGORY CASE IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

## ТИПОЛОГИЯ КАТЕГОРИЯ ПАДЕЖЫ НА НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Nuritdinova Shoira Xamidovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillar kafedrasini**Annotatsiya**

Chet tilini mukammal o'rganishning muhim omillaridan biri o'rganilayotgan chet tilini o'z ona tili bilan qiyosiy-chog'ishtiruv usuli bilan o'rganishdir. Tillarni chog'ishtiruv yo'li bilan o'rganilganda, ularni farqli va o'xshash tomonlari til o'rganuvchida qiziqishni orttiradi, hamda xotirasida saqlanib qolishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tillarning tuzilishi, shakl jihatdan bir-biriga uzviy bog'liqligi, ularning farqli tomonlari yanada yaqqol ko'rinadi. Nemis va o'zbek tillari grammatik kategoriyalari nemis tilini o'rganishning muhim masalalaridan biri bo'lib, xorijiy tilni o'qitishda katta ahamiyatga ega. Nemis va o'zbek tillaridagi kategoriyalar o'ziga xos xususiyatlariga egadir. Bu grammatik kategoriyalarni tadqiq qilish, ularning nemis va o'zbek tili bilan qiyosiy tahlili, o'xshash va farqli tomonlarini tahlili va ularning natijasi xorijiy tilga o'qitishda ham juda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek xorijiy tilga o'qitishda grammatik kategoriyalarning ahamiyati, ayniqsa, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda va malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni sistemali va qiyosiy o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maqolada nemis va o'zbek tillarida otlarga ta'luqli bo'lgan kelishik kategoriyasi, nemis hamda o'zbek tillarida mavjud kelishiklar, ularning o'ziga xos tomonlari, ular o'rtasidagi farqlar yoritilgan.

**Аннотация**

Одним из важных факторов идеального изучения иностранного языка является изучение изучаемого иностранного языка со своим родным языком путем его сравнения и противопоставления. Когда языки изучаются путем смешивания, их различия и сходства повышают интерес изучающего язык, положительно влияют на его память, структура и форма языков взаимосвязаны. Когда языки изучаются путем смешивания, их различия и сходства повышают интерес изучающего язык, положительно влияют на его память, структура и форма языков взаимосвязаны. Грамматические категории немецкого и узбекского языков являются одним из важных вопросов изучения немецкого языка и имеют большое значение при обучении иностранному языку. Категории в немецком и узбекском языках имеют свои особенности. Исследование этих грамматических категорий, их сравнительный анализ с немецким и узбекским языками, анализ их сходства и различия, а также их результаты имеют большое значение в обучении иностранному языку. Также важно значение грамматических категорий в обучении иностранному языку, особенно в формировании и совершенствовании навыков устной и письменной речи, а их систематическое и сравнительное изучение является одним из актуальных вопросов. В статье выделены категории согласия, относящиеся к существительным в немецком и узбекском языках, существующие соглашения в немецком и узбекском языках, их специфика, а также различия между ними.

**Abstract**

One of the important factors of perfect learning of a foreign language is to learn the studied foreign language by comparing it with one's native language. When languages are studied by mixing, their differences and similarities increase the interest of the language learner, and have a positive effect on their memory, the structure and form of languages are interrelated, their differences are more obvious. The grammatical categories of the German and Uzbek languages are one of the important issues in learning the German language and are of great importance when teaching a foreign language. Categories in German and Uzbek languages have their own characteristics. The study of these grammatical categories, their comparative analysis with the German and Uzbek languages, the analysis of their similarities and differences, as well as their results are of great importance in teaching a foreign language. The importance of grammatical categories in teaching a foreign language is also important, especially in the formation and improvement of oral and written speech skills, and their systematic and comparative study is one of the pressing issues. The article describes the category of agreement related to nouns in the German and Uzbek languages, the existing agreements in the German and Uzbek languages, their specific aspects, and the differences between them.

**Kalit so'zlar:** kategoriya, grammatik vositalar, affiksial morfemalar, morfologik-sintaktik kategoriya, kelishik qo'shimchalari, vositasiz kelishik, vositali kelishik, otlarning turlanishi, artikl, suffiks, maxsus turlanish.

**Ключевые слова:** категория, грамматические средства, аффиксальные морфемы, морфолого-синтаксическая категория, наречия согласия, непосредственный договор, опосредованный договор, классификация существительных, артикль, суффикс, специальная классификация.

**Key words:** category, grammatical devices, affixal morphemes, morphological-syntactic category, adverbs of agreement, unmediated agreement, mediated agreement, classification of nouns, article, suffix, special classification.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga "Murojaatnomasida" ta'kidlanganidek, "Innovatsiya – bu kelajak degani. Buyuk kelajagimizni qurishni bugundan boshlasak, uni innovatsion g'oyalar, innovatsion tendensiyalar asosida boshlashimiz kerak" [1,20]. Bu fikrlar, albatta ta'lim tizimiga, shu bilan birga tilshunoslik faniga ham ta'aluqlidir. Mamlakatimizda chet tilda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini

retrospektiv planda tadqiq etish, oliy ta'lim muassasalarining xorijiy filologiya yo'nalishlarida madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etadigan kommunikant va kognizant shaxsini rivojlantirishda psixolingvistika fani yutuqlaridan samarali foydalanish usullari ustida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021-yil 6-may kuni o'tkazilgan "Chet tillar o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" mavzusidagi videoselektor yig'ilishida "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi" [1,22] deya ta'kidlagan fikri diqqatga sazovordir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODALOGIYASI

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi, jumladan, qiyosiy tipologiya fani oldiga zamonaviy rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda yangi tadqiqotlar yaratish vazifasi qo'yilmoqda.

So'nggi bir necha o'n yilliklarda dunyo tilshunoslarining tillarni tipologik, ya'ni qiyosiy o'rganishga qiziqishlari tobora ortib bormoqda.

Tillarni mukammal egallashning muhim omillaridan biri tillarning grammatik tomonlarini mustahkam egallashdir. Bu ma'noda albatta nemis tilini o'rganishda ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan kelishik kategoriyasining o'ziga xosliklari mukammal o'rganish muhimdir.

Otlarning boshqa so'z turkumidagi so'zlarga nisbatan bo'lgan munosabatini ko'rsatadigan kategoriya **kelishik kategoriyasi** deyiladi. Bu kategoriya borliqdagi predmet, sifat va hodisalar orasidagi aloqa, munosabatlarni ko'rsatadi.

Kelishik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar otlarning va otlashgan so'zlarning sintaktik vazifasini ko'rsatadi. Shuning uchun ko'pchilik tilshunos olimlar bu kategoriyani morfologik-sintaktik kategoriya deb ham yuritishadi.

Kelishik ma'nolari grammatik affiksial morfemalar orqali ifodalanadi, masalan: **-es, s, en** nemis tilidagi mujskoy rod birlik formasining kelishik qo'shimchalari; **-ning, -ni, -ga, -da, -dan** o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari.

Nutqda kelishiklarning qo'llanishi uchun kamida ikki so'z munosabatga kirishishi kerak. Bir-biri bilan bog'langan ikki so'z bor joyda sintaksis kuchga kiradi: *uyda to'qilgan, quyoshning nuri, zalga kir, schöne Blumen, fleißige Schüler* kabi.

Kelishik kategoriyasi bir nechta xususiy ma'no va bu ma'nolarni ifodalovchi vositalardan tashkil topadi. Turli tillarda kelishiklarning soni turli xil: hozirgi ingliz tilida kelishik ikkita, nemis tilida to'rtta, o'zbek va rus tillarida oltita, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmatadan ortiq. Xitoy - tibet tillarida va hozirgi frantsuz tilida kelishik umuman yo'q. Bunday tillardagi gaplarda so'zlar orasidagi munosabat boshqa grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Tillarda kelishiklarning soni turlicha bo'lishi kelishik kategoriyasi ifoda qiluvchi ma'no va uni ifoda qiluvchi formalarning vazifasi xap xil ekanligini ko'rsatadi. Bir tildagi kelishikni aynan boshqa tillarda ham bor deyish noto'g'ridir. Masalan: o'zbek va nemis tillaridagi kelishiklarni qiyoslaymiz. Ma'lumki, o'zbek tilida oltita va nemis tilida to'rtta kelishik bor. O'zbek tilidagi bosh kelishik nemis tilidagi Nominativ kelishigiga mos keladi: ikkala tilda ham bu kelishikda kelgan so'zlar gapda ega va ot kesim vazifasida keladi, o'zbek tilidagi qaratqich kelishigi nemis tilidagi Genitiv kelishigiga mos keladi, o'zbek tilidagi tushum kelishigi nemis tilidagi Akkusativ kelishigiga to'g'ri keladi o'zbek tilidagi jo'nalish, o'rin – peyt kelishigi nemis tilidagi Dativ kelishigiga mos tushadi. Lekin bu moslik to'liq emas. Buni birgina Dativ va Akkusativ kelishigi misolida ko'rish mumkin. Bu kelishiklar *k i m ga?, n i m a g a? — w e m? v a k i m n i?, n i m a n i?- w e n?, w a s?* so'roqlariga javob bo'lishi bilan mos keladi: *Ich gebe das Buch dem Lehrer. Men kitobni o'qituvchiga beraman.*

Ba'zi tillarda kelishik kategoriyasi bir nechta so'z turkumlariga xos bo'ladi, masalan: o'zbek tilida faqat ot va olmoshlargina bu kategoriyaga ega bo'lsa, nemis tilida ot, sifat, son va olmoshlar ham kelishiklar bilan turlanadi. Masalan: *Karim mening yaqin do'stimni uchratibdi. — Karim begegnete meinen besten Freunden.*

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Garchi o'zbek va rus tillarida kelishiklar soni oltitadan bo'lsada ulardagi kelishik qo'shimchalarining soni bir xil emas: o'zbek tilida hamma so'zlarga yuqorida keltirilgan beshta qo'shimchadan biri qo'shila beradi, rus tilida esa qo'shimchalar soni ancha ko'p, kelishik qo'shimchasini tanlashdan oldin qo'shimcha oladigan so'zning qaysi jinsga mansub ekani aniqlab olinadi [2,35].

Kelishik	Jins (rod)		
	mujskoy	jenskiy	sredniy
Im.p	Stol	Kniga	Okno
Rod.p.	Stola	Knigu	Okna
Dat.p	Stolu	Knige	Oknu
Vin.p	Stol	Kniga	Okno
Tvor. p.	Stolom	Knigoy	Oknom
Pred. p.	(o) stole	(o) knige	(ob) okne

### Jadval №1. Rus tilidagi kelishiklar

Nemis tilida to'rtta kelishik *bosh kelishik* — Nominativ (Werfall), *qaratqich kelishigi* — Genitiv (Wesfall), *jo'nalish kelishigi* — Dativ (Wemfall) va *tushum kelishigi* — Akkusativ (Wenfall) bor. Otning kelishiklar bo'yicha o'zgarishiga turlanish deyiladi. Bulardan bosh kelishik (Nominativ) vositasiz (der gerade Kasus), qolgan uchta kelishik vositali kelishik (die obliquen Kasus) deyiladi. Otlarning turlanish xillari birlikda aniqlanib, ular artikl va kelishik qo'shimchalari yordamida belgilanadi. Bunda artikl muxim rol o'ynaydi, chunki nemis tilida kelishik qo'shimchalarining soni kam bo'lib, ular faqat -(e)s, -e, -(e)n dan iborat. Bundan tashqari ko'p ot formalari kelishik qo'shimchasiga ega emas: *die Frau, der Frau, der Frau, die Frau*. Otlar birlikda uch xil turlanishga ega bo'lib, ularning ko'plikdagi turlanishi bir xil bo'lib, asosiy vazifani artikl bajaradi [3,40].

O'zbek tilida esa oltita kelishik mavjud. Nemis tilida kelishiklar artikl va suffikslar yordamida ifoda etiladi. Bunda artiklning roli juda katta, chunki kelishik qo'shimchalarining soni kam bo'lib, ularning vazifasini ham qisman artikl bajaradi. Masalan: *die Brille des Vaters* misolidagi *Vater* so'ziga qo'shilgan qo'shimchasi qaratqich kelishigini anglatsa, *er ruft den Lehrer* misolidagi otning tushum kelishigida kelganini faqat kelishik emas, artikl ham anglatmoqda [4.65].

Nemis tilidagi otlar kuchli, kuchsiz va jenskiy rod turlanish turiga ega (Starke und schwache Deklination der Substantive und des weiblichen Geschlechts).

Bundan tashqari ba'zi otlar maxsus turlanish va atoqli otlarning turlanish turiga ega. Shu o'rida nemis tilida otlarning turlanish qoidasiga to'xtalib o'tish lozim deb o'ylaymiz [5,87].

#### 1.Otlarning kuchli turlanishi

Nemis tilida kuchli turlanishning o'ziga xos belgisi otlarning Genitiv kelishigida (-e) s qo'shimchisini olishidir.

der Lehrer – des Lehrers

das Mädchen – des Mädchens

Bir bo'g'inli otlar, shuningdek, **-s, ß, -z, -x** kabi undoshlar bilan tugagan otlar har doim –es qo'shimchasini oladi.

der Sohn – des Sohnes

der Fuß – des Fußes

das Suffix – des Suffixes

Quyidagi otlar kuchli turlanadilar:

a) mujskoy roddagi otlarning asosiy qismi;

b) sredniy rod otlarning das Herz dan tashqari hammasi.

Boshqa tillardan nemis tiliga o'tgan va **-us** suffiksli otlar Genitiv kelishigida hech qanday qo'shimcha olmaydi.

das Tempus – des Tempus

das Genus – des Gunus

2. Bir bo'g'inli otlar Dativ kelishigida **-e** qo'shimchasini oladi. Biroq bu qo'shimchani qo'llash shart emas:

dem Sohn (e), dem Buch (e), dem Freund (e), dem Tisch (e).

#### 2.Otlarning kuchsiz turlanishi

Kuchsiz turlanishda otlar bosh kelishikdan tashqari kelishiklarning hammasida -e(n) qo'shimchasini oladilar.

Nom. der Mensch  
 Gen. des Menschen  
 Dat. dem Menschen  
 Akk. den Menschen

2. Kuchsiz turlanishga faqat mujskoy roddagi otlarning kuchli turlanishiga kirmagan qismi kiradi. Ular quyidagilar:

- a) birlikda **-e** bilan tugagan mujskoy roddagi jonli narsalarni ifodalaydigan otlar:  
 der Genosse, der Kollege, der Löwe, der Matrose, der Bursche, der Russe, der Junge;
- b) bir bo'g'inli mujskoy roddagi otlar:  
 der Mensch, der Held, der Hirt, der Bär, der Herr, der Ochs.
- c) xorijiy tillardan nemis tiliga o'zlashgan va **-ant, -ent, -ist, -at, -et, -ot, -om, -graph, -og,-**

**soph** suffiksli mujskoy roddagi otlar:

der Praktikant, der Laborant, der Patriot, der Pädagog (e), der Jurist, der Advokat, der Assistent, der Agronom, der Photograph, der Konsonant, der Automat, der Planet, der Präsident der Pflilosoph, der Absolvent, der Veteran, der Optimist, der Bandit u. a.

**3.Otlarning jenskiy turlanishi**

Jenskiy turlanishga kiradigan otlar kelishik qo'shimchalarini olmasdan turlanadi. Bu turlanishga faqat jenskiy roddagi otlar kiradi.

Kasus	Femininum		
Nom.	die Fakultät	eine Blume	die Stadt
Gen.	die Fakultät	eine Blume	die Stadt
Dat.	die Fakultät	eine Blume	die Stadt
Akk.	die Fakultät	eine Blume	die Stadt

**Jadval №2. Jenskiy turlanish jadvali**

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda nemis tilida to'rtta kelishik bor. Nemis tilida otlarning turlanish xillari birlikda aniqlanib, ular artikl va kelishik qo'shimchalari yordamida belgilanadi. Bunda artikl muhim rol o'ynaydi, chunki nemis tilida kelishik qo'shimchalarining soni kam bo'lib, ular faqat **-(e)s, -e, -(e)n** dan iborat. Bundan tashqari ko'p ot formalari kelishik qo'shimchasiga ega emas [6,98].

Otlar birlikda uch xil turlanishga ega, ularning ko'plikdagi turlanishi bir xil bo'lib, asosiy vazifani artikl bajaradi.

Bundan tashqari ba'zi otlar maxsus turlanish va atoqli otlarning turlanish turiga ega.

O'zbek tilida esa oltita kelishik mavjud. O'zbek tilida otlar kelishik qo'shimchalari qo'shilishi asosida turlanadi. Nemis tilida esa kelishiklar artikl va suffikslar yordamida ifoda etiladi [7,163]. Bunda artiklning roli juda katta, chunki kelishik qo'shimchalarining soni kam bo'lib, ularning vazifasini ham qisman artikl bajaradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ- 4947-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли Қарори.
3. М.Арсенјева Grammatik der deutschen Sprache. М.: 1963.
4. E . A r n d t . Die begründenden Sätze im Neuhochdeutschen und ihre wichtigsten Konjunktionen. Diss. Berlin, 1956.
5. M.Umarxo'djaev. Nemis tili leksikologiyasi va frazeologiyasi Andijon, 2008
6. N.Avazboyev. Hozirgi nemis tili fonetikasi. I- qism. (o'quv uslubiy qo'llanma). T.: Universitet nashiryoti, 1994.
7. Sh.Nuritdinova; V.Ibragimov, Problems of Grammatical Interference in Teaching German Language to Uzbek Students. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 2022. P.163-168.